

T/P	T/P	Объектлар номи ва манзили	Қурилиш бошланиш ва фойдаланишга топшириш йили	Лойиҳа қуввати (км)	Объектнинг умумий қиймати (шартнома асосида) жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й. ҳолатига объект қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг (кайта ҳисоблаш билан) қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.22 й., ҳолатига объектнинг молиялаштириш қолдиғи жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	2022 йил учун капитал қўйилмалар лимити				2022 йилда фойдаланишга топширилмайдиган		01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг (кайта ҳисоблаш билан) қолдиқ қиймати жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	01.01.23 й., ҳолатига йилдан йилга ўтувчи объектнинг молиялаштириш қолдиғи жумладан, буюртмачи бошқа харажатлари	Экспертиза хулосаси рақами ва санаси	Тендер (танлов)лар натижасига бўйича баённома рақами ва санаси	Қурилиш гудрат ташқилот номи	
									Жами капитал қўйилмалар	Қурилиш - монтаж ишлари	Жилоз	Буёртмачи бошқа харажатлари		Муддат/ қувват						Асосий фонд суммаси
												Жами	жумладан, сақлаш харажатлари							
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
47	2	Тупроққалъа тумани "Обод" маҳалласи Гулобод кўчаси 1 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						140,000			7,678								Тендер
48	3	Урганч тумани "Оёқ боғ" маҳалласи Олтин кўчасининг 900 метр қисмига 23 та тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						170,200			8,637								Тендер
49	4	Урганч тумани "Беруний" маҳалласи Беруний кўчасининг 1,2 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						222,000			10,281								Тендер
50	5	Урганч тумани "Боғдорчи" маҳалласи Ватан тараққиёти кўчасининг 1,0 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						192,000			9,329								Тендер
51	6	Хазорасп тумани "Мухомон" маҳалласидаги 49-сон мактабга олиб борувчи асосий 1 км йўлга тунги ёриткичлар ўрнатиш	2022 й.						200,000			9,583								Тендер
52	7	Хонка тумани "Бунёдкор" маҳалла ҳудудидаги кўчаларга 1,5 км узунликдаги тунги ёриткич чирокларини ўрнатиш	2022 й.						277,500			12,043								Тендер
53	8	Хонка тумани "Порлоқ" маҳаллада "А.Навой", "А.Баходирхон", "А.Каххор" кўчаларига 1,3 км узунликдаги тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						240,500			10,868								Тендер
54	9	Янгиариқ тумани "Дўстлик" маҳалласи 10-сонли мактабга олиб борувчи марказий кўчанинг 1 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						280,000			12,122								Тендер
55	10	Янгиариқ тумани "Ширшоли" маҳалладаги Гулистон шох кўчасига 1,5 км қисмига пёдалар йўлаги қуриш	2022 й.						450,000			17,518								Тендер
56	11	Янгиариқ тумани "Тузлок" маҳалласи Яккачинор кўчасига 1 км узунликдаги тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						200,000			9,583								Тендер
57	12	Янгиариқ тумани "Янгиариқ" маҳалласи Ал-Жомий кўчасининг 0,3 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						100,000			6,409								Тендер
58	13	Янгиариқ тумани "Чақир" маҳалласи Чақир тош кўчасининг 1 км қисмига тунги ёриткич чироклари ўрнатиш	2022 й.						280,000			12,122								Тендер

Изоҳ: Объектларнинг параметрларидан Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқилиб, экспертиза хулосалари олинган ҳамда танлов (тендер) савдолари натижалари қўра аниқлик киритилади.

"КИРИТИЛДИ"

Хоразм вилоят ҳокимлиги
"Ягона буюртмачи қизмати" ИК
директори

И. Отасев

2022 й.

"КЕЛИШИЛДИ"

Хоразм вилоят Молия
бошқармаси бошлиғи

2022 й.

"КЕЛИШИЛДИ"

Хоразм вилоят Иқтисодий тараққиёт
ва камбағалликни қисқартириш бош
бошқармаси бошлиғи

2022 й.

Urganch shahri

Kelgusida «Buyurtmachi» deb nomlanuvchi Xorazm viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor SH.Otayev bir tomondan, kelgusida «Loyihachi» «MUBORAK DIANA SERVIS» XK nomidan ish yurituvchi direktor M.Akimova ikkinchi tomondan Xonqa tumani "Ilg'or" mahalla hududidagi "Farovon" ko'chasini 2,8 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakhasi qurish va tungi yoritkich chiroqlarini o'rnatish ob'ekti Loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqarish yuritishga doir ushbu shartnomani tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

- 1.1. Loyihachi Buyurtmachining Loyihalash topshirig'i bo'yicha ishchi Loyiha-qidiruv ishlarini (LQI)ni ishlab chiqish majburiyatini oladi.
- 1.2. Buyurtmachi Loyiha-qidiruv ishlarini bajarish uchun topshiriq berish, zarur bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish, belgilangan tartibda va miqdorda xaqini to'lash majburiyatini oladi.
- 1.3. Loyihachi ko'rsatib o'tilgan ishlarni «Korxonalar, bino va inshootlari Loyiha-qidiruv ishlari tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» xaqidagi 1.03.01-03 SHNQ qoida va qo'llanmalari va mazkur Shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.
- 1.4. Loyihachi ushbu LQI bo'yicha barpo etilayotgan ob'ekt to'liq qurilib, foydalanishga topshirilib, kafolat muddati tugaguncha SHNQ 1.03.07-2010 talablari asosida mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi.
- 1.5. «Loyihachi» mazkur ishlarni bajarishga Shartnoma imzolangan kundan boshlab kirishadi.

2. Ishlarni bajarish muddati

- 2.1 Mazkur Shartnomada LQI ni tayyorlash muddati, 2022 yil 12 Noyabrdagi №55599-sonli bayonnomasiga asosan, ishlar boshlangan kundan boshlab 10 kal.kun etib belgilanadi.
- 2.2 Buyurtmachi tomonidan topshiriq, birlamchi ma'lumotlarni berish va Loyihachi tomonidan Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha ishchi LQI ishlab chiqish, amaldagi tartib qoidalar bo'yicha topshirish muddatlarini tomonlar kalendar jadvalda belgilaydilar va u Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 2.3 Loyihachi Shartnomani 2.1 bandida kursatilgan muddatida Loyiha-qidiruv (LQI) ishlarini to'liq yakunlab buyurtmachiga taqdim qilmasa Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

3. Shartnoma baxosi.

- 3.1 Mazkur Shartnoma bo'yicha Loyihachi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori 2022 yil 12 Noyabrdagi №55599-sonli bayonnomasiga asosan bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'implar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda QQS bilan joriy narxlarda 21 780 000 so'mni tashkil qiladi.

4. To'lov shartlari.

- 4.1 Shartnomada milliy valyuta «so'mda» o'zaro xisob-kitob qilinishi belgilanadi, to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri Loyihachi xisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- 4.2 Mazkur Shartnoma bo'yicha maqsadli avans, ishlar umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qiladi.
- 4.3 Buyurtmachi mazkur Shartnomada belgilangan ishlar to'laligicha bajarilib, xajmi, sifati va Loyihachining xisoboti tekshirilib, Davlat ekspertizalaridan o'tkazilib, aniqlangan kamchilik va xatolar, bildirilgan e'tirozlar bartaraf qilinib ijobiy xulosalar olingandan keyin Shartnoma qiymati doirasida ilgari berilgan avansni xisobga olgan holda yakuniy to'lovni ya'ni kolgan 70 foizini amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

Loyihachining majburiyatlari:

- 5.1. Loyihalash xaqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini Shartnomada belgilangan muddatda Buyurtmachiga topshirish majburiyatlarini oladi.
 - 5.2 Tayyor bo'lgan LQI xujjatlarini Buyurtmachi bilan birgalikda foydalanish tashkilotlari (elektr tarmoqlari korxonasi, vodokanal, raygaz, yong'in xavfsizligi nazorati), tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olish.
 - 5.3 Buyurtmachining roziligisiz LQI xujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.
 - 5.4 Ishlab chiqilgan LQI xujjatlarini asosida quriladigan ob'ektning kurilishi boshlanishidan kurilishi tugallanib foydalanishga topshirilgandan keyin kafolat muddati tugaguncha qadar to'laligicha, mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi. Ushbu grafik Buyurtmachiga Loyihachi tomonidan ishlar boshlangan kuni taqdim qilinadi. Loyihachi qurilish maydonida ko'rinmas ishlar (скрытые работы) bajarilayotgan paytda qatnashishni kafolatlaydi.
 - Ushbu ko'rinmas ishlar ro'yxati amaldagi me'riy xujjatlarga asosan ishchi Loyihada ko'rsatilishi shart.
 - 5.5 Buyurtmachi bilan birgalikda ishlab chiqilgan LQI ni Davlat va ekologik ekspertizalardan o'tkazish, ularning qayd qilgan xato va kamchiliklarini, bildirgan e'tirozlarini beg'araz bartaraf qilish majburiyatini oladi.
 - 5.6 Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan dastlabki va birlamchi ma'lumotlarni, muxandislik qidiruv xulosalarini, Buyurtmachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, ulardan faqat ushbu Shartnomadagi predmetda foydalanish majburiyatini oladi.
 - 5.7 Loyihachi Topotasvir va Geologiya ishlarini bajarib Buyurtmachiga taqdim qilish majburiyatini oladi.
 - 5.8 Loyihachi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi PQ-43-sonli va 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-son qarorlarini so'zsiz bajarish majburiyatini oladi.
 - 5.9 Loyihachi, Buyurtmachi tashkilotiga har bir obyekt bo'yicha Mualliflik nazoratini yuritishga mas'ul qilib belgilab hujjatlarini berish (Mas'ul shaxsning diplom, passport, buyruq, o'qiganligi tog'risida sertifikatlarini nusxalarini topshirish) majburiyatini oladi.
- Buyurtmachining majburiyati:**
- 5.10. Loyihachidan olingan LQI xujjatlaridan faqat mazkur Shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, LQI xujjatlarini Loyihachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.
 - 5.11. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda Shartnomani 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun Loyihachiga xaq to'lash.
 - 5.12. Loyihachiga Loyiha ishlarini bajarishda ushbu Shartnomada nazarda tutilgan xajmda va shartlarda xizmat ko'rsatish.
 - 5.13. Tayyor bo'lgan LQI xujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda Loyihachi bilan birga qatnashish.
 - 5.14. Loyihachiga bog'liq bo'lmagan xolatlar sababli Loyiha ishlarini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni Loyihachiga to'lash.
 - 5.15. Tayyorlangan LQI xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishga qatnashishga Loyihachini jalb qilish.
 - 5.16. Loyihachining xuquqlari:
 - LQI xujjatlarini ishlab chiqish jarayonida zarurat bo'lsa ayrim maxsus qismlarini bajarish uchun yordamchi (subpodryadchiklarni) jalb qilishga xaqlidir.

6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

- 6.1. Bajarilgan ishlarni baxolash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida kalendar jadval bo'yicha amalga oshiriladi.
- 6.2. Loyihachi tomonidan topshiriladigan va rasmiylashtiriladigan xujjatlar ruyxati texnik topshiriqda aniklanadi.
- 6.3. Loyihachi ishlarni bajarib bo'lgach, Buyurtmachiga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib bitta elektron variant va 3 ta nusxada xujjatlar komplektini xisobot bilan taqdim etadi.

6.4. Buyurtmachi mazkur Shartnomada ko'rsatilganidek, topshirish - qabul qilish dalolatnomasini va xisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va Loyihachiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

6.5. Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish davomida buyurtmachining asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan xollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklanadi.

6.7. O'zaro xisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur Shartnomadagi ishlarni to'xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

6.8. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda Loyihachi ularni beg'araz bartaraf etadi.

6.9. Agar Loyihachi o'tgan bosqich uchun xisobot bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

7. Tarafdarning javobgarligi.

7.1. Loyihachi LQI xujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan LQI xujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan xarajatlarni qoplaydi.

7.2. LQI xujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Loyihachi Buyurtmachining talabi bilan LQI xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. Penyaning to'langanligi va zararning qoplanganligi tarafdarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7.4. Mazkur Shartnomada ishlarni bajarish grafigidagi majburiyatlarni buzganligi uchun ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi va Shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun «Loyihachi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan tarafdarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors - major).

8.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakterli va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu xolat mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

8.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Loyihachi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtatimga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi Shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. Qo'shimcha shartlar

9.1. Buyurtmachi 1.1 - badda ko'rsatilgan ob'ektdan tashqari, Loyihachi tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga haqli emas, Loyihachidan olingan birlamchi ma'lumotlardan boshqa maqsadlar uchun foydalanish xuquqiga ega emas.

10. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarilguncha o'z kuchida qoladi.

10.2. Shartnomaning muddati tugashiga qaramay, tomonlar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

10.3. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.

11. Baxslarni hal etish tartibi

11.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar o'zora muxokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish tartibi va bekor qilish tartibi.

12.1. Ushbu Shartnomaga xar kanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tarafdarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy xisoblanadi.

12.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga tarafdarning kelishuviga ko'ra, etkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'qo'yiladi.

12.3. Loyihachining aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi Shartnomada belgilangan muddatdan bir oydan oshiq muddatga kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, Buyurtmachi Shartnomani bekor qilishga haqli.

12.4. Loyihachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Loyiha ishlari Buyurtmachi tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, Buyurtmachi Loyihalash ishlarining xaqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, Loyihachi Shartnomani bekor qilishga haqli.

12.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa Shartnoma bekor qilingan xisoblanadi.

12.6. Mazkur Shartnoma bil xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

13. Tomonlarning rekvizitlari:

Buyurtmachi:

Loyihachi:

Xorazm viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi

«MUBORAK DIANA SERVIS» XK

Urganch sh. Al-Xorazmiy k.23-a

Telefon 223-09-29, 223-09-38

sh/hr 3082186033401706420040055

STIR 204821497, OKONX 69000

Moliya vazirligi g'aznachiligi

G'azna x/v 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM

MFO 00014 STIR 201122919

Direktor: SH.Otayev

Bosh yuriskonsult: SH.Djumaniyazov

Urganch sh. Firdavsiy ko'chasi 16 pr 1 uy

Telefon: +99893-751-79-56

x/r 2020800904551130001

STIR 300 028 557

OKONX 66000

«Xalq banki» Urganch sh fil

MFO 00808

DIANA SERVIS

Direktor: M.Akimova


Xonqa tumani "Ilg'or" mahalla hududidagi "Farovon" ko'chasini 2,8 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish va tungi yoritkich chiroqlarini o'rnatish ob'ekti bo'yicha Loyiha-qidiruv ishlarini bajarish

GRAFIGI

№	Ob'ekt nomi va manzili	Ishlar turi	Ishlar qiymati jami, ming so'm	shu jumladan 2022-yil	
				Noyabr	-
1	2	3	4	5	-
1	Xonqa tumani "Ilg'or" mahalla hududidagi "Farovon" ko'chasini 2,8 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish va tungi yoritkich chiroqlarini o'rnatish LSX ishlab chiqish	Loyiha-qidiruv ishlari QQS bilan	21780,0	21780,0	-
	JAMI		21780,0	21780,0	-



Buyurtmachi



Loyihachi

BUYURTMACHI - Xorazm viloyat hokimligining «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi bilan Loyihachi - «MUBORAK DIANA SERVIS» XK o'rtasida Xonqa tumani "Ilg'or" mahalla hududidagi "Farovon" ko'chasini 2,8 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish va tungi yoritkich chiroqlarini o'rnatish ob'ektiga Loyiha-qidiruv ishlari ishlab chiqish yuritishga doir Shartnoma loyihasi yuzasidan kompaniya Bosh yuriskonsulti SH.Djumaniyazov tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining 21-moddasi talablaridan kelib chiqib

XULOSA

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining Shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan. Shartnoma Loyihasining shartlari, xususan Shartnoma mavzusi, taraflarning xuquqlari va majburiyatlari, hisob-kitoblar tartibi, taraflarning javobgarligi, nizolarni xal etish tartibi, fors-major xolatlari va javobgarlikdan ozod etish masalalari qonun hujjatlari talablariga mos keladi.

Bosh yuriskonsult SH.Djumaniyazov
2022 yil

ISHLARNI BAJARISH QIYMATINI ANIQLASH
VA KELISHISH DALOLATNOMASI

Urganch shahri

2022 yil «16» Noyabr

«Buyurtmachi» Xorazm viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor SH.Otayev va «Loyihachi» - «MUBORAK DIANA SERVIS» XK nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor M.Akimova o'rtasida Xonqa tumani "Ilg'or" mahalla hududidagi "Farovon" ko'chasini 2,8 km uzunlikdagi piyodalar yo'lakchasi qurish va tungi yoritkich chiroqlarini o'rnatish ob'ekti bo'yicha Loyiha-qidiruv ishlarini ishlab yuritish qiymatini kelishish to'g'risida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

1. LQIni ishlab chiqarish qiymatini aniqlash va kelishish:

Ob'ektning QMI smeta baxosi QQS - 940 800,0 ming.so'm;
Loyiha-qidiruv ishlari qiymatini aniqlash to'g'risidagi Nizomning 4-ilovasi 5-ustuniga asosan ishchi Loyihani ishlab chiqish qiymati darajasi - 3,5%;
kamaytirish qiymati (kelishilgan) - 0,8;
nizomni 2-chi ilovasi 4-chi qatoriga asosan qiymati (kupaytirish) - 1,0;
Xisoblangan qiymat $940\ 800,0 \times 3,5\% \times 0,8 \times 1,0 = 26\ 342,4$ ming.so'm;
Kelishilgan qiymat QQS bilan - 21 780,0 ming.so'm.

Ushbu qiymat shartnoma tuzish va xisob kitob qilish uchun aniqlandi va kelishildi.

Loyihachi:

M.O'.

